

## KREDIT MODUL TA'LIMINING JORIY ETILISHI VA NAZARIYASI

*F. Ergasheva*<sup>1</sup>

*(Ilmiy rahbar: SamDCHTI Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasi o'qituvchisi S.N.Najiyeva)*

*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada kredit modul ta'lim tizimining maqsad va vazifalari, hamda ta'limni rivojlantirishda o'qituvchining pedagogik mahorat haqida so'z yuritiladi.

*Kalit so'zlar:* kredit, ta'lim, pedagog, pedagogik mahorat, talaba, professor, ko'nikma, malaka, bilim, fikr

*doi:* <https://doi.org/10.2024/snry1t12>

---

Bugungi kunda Oliy ta'limni rivojlantirishda kredit modul ta'lim tizimi keng qo'llanilishga harakat qilinmoqda. Hozirgi jamiyatimizda eng avvalo OTM ta'lim tizimiga tizimli yondashish yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan.<sup>2</sup>

Yaqin yillar mobaynida OTMlarda kredit modul ta'lim tizimi joriy qilinmoqda. Bu tizimni joriy qilishdan asosiy maqsad OTMlardagi bu tizimni kengaytirish va ta'limdagi shaffoflikni oshirish uchundir. Dunyo mamlakatlarining bu tizimni joriy qilishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlaridan biri bu davlatlararo o'zaro talaba almashinuvini yanada kengaytirish hamdir. Shu bilan birga bu ta'lim va boshqa sohalardagi tajriba almashinish uchun ham katta yo'l ochadi. Kredit modul ta'lim tizimining kelib chiqishining ilk tarixi quyidagichadir.

Kredit-modul tizimi ilk bor 19-asrning ikkinchi yarmida AQSHda joriy etilgan.<sup>3</sup> O'sha paytda mamlakat oliy ta'lim muassasalari qat'iy belgilab qo'yilgan o'quv dasturlari asosida faoliyat yuritgan. O'quv dasturlari, asosan, o'sha davr diniy falsafasi bilan bog'liq fanlardan tashkil topgan. Deyarli barcha universitetlarda lotin tili alohida fan sifatida o'qitilgan. Aslida bu paytga kelib lotin tili allaqachon o'lik tilga aylanib bo'lgan edi. Ya'ni, amalyotda bu tilda deyarli ehtiyoj bo'lmagan. Universitet o'quv dasturlarida bu kabi amalyotda ahamiyatini yo'qotgan fanlar ko'lami anchani tashkil qilgan. Natijada universitetlar mutaxassislar tayyorlaydigan dargoh emas balki o'sha davrda aholining o'ziga to'q qatlami shunchaki obro' va to'kinlik belgisi sifatida ta'lim oladigan muassasaga aylanib qolgan. Buning oqibatida oddiy fuqarolar orasida universitetlarga qiziqish kamaya boshlagan.

1869-yilga kelib Garvard Universitetiga o'sha davrning eng ilg'or fikrlovchilardan bo'lgan Charlos Elliot prezident etib saylanadi. Ko'p o'tmay u universitetdagi qat'iy belgilab

---

<sup>1</sup> *F.B.Ergasheva, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон билан тасдиқланган "Ўзбекистон Республикаси oliy ta'lim tizimini 2030 йилгача rivojlantirish konsepsiyasi", 1-илоvasi, 9- банди

<sup>3</sup> World Bank "The Academic Credit System in Higher Education: Effectiveness and Relevance in Developing Countries" (July 1992)

qo'yilgan o'quv dasturlarini bekor qiladi. Endilikda, Garvard Universitetida talabalar o'quv dasturida taklif qilinadigan fanlar orasidan o'zlari xohlagan, qiziqqan fanlarni tanlab, o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.<sup>1</sup>

1976-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlari ta'lim vazirlari mazkur davlatlar universitetlari o'rtasida hamkorlikda o'qish dasturlari joriy etish borasida kelishuvga erishishadi.<sup>2</sup>

Kredit modul ta'lim tizimining ilk va yaqin tarixidan kelib chiqib shunday deyishimiz mumkinki bu tizimning asosiy vazifalaridan biri ta'limda shaffoflikni ishirish bo'lsa, tizimning vazifasi esa jamiyat uchun muhim bo'lgan kuchli bilim va mustaqil fikrli kadrlarni yetishtirishdir. Kredit modul ta'lim tizimiga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak bunda asosiy yo'nalish talabaga qaratilgandir. O'qituvchi esa ma'lum bir fan bo'yicha kerakli manbalar va bu ta'lim bo'yicha yo'nalish beradi. Kredit modul ta'lim tizimida fan bo'yicha ma'lum kredit belgilanadi va talaba semestr davomida kreditlarni to'plab boradi va yakuniy imtihon natijalari bilan birga kreditni to'la ravishda yopadi. Bu kreditni to'plash uchun talabalar 1 soat o'qituvchi bilan ishlasa 1,5 soat talaba mustaqil shug'ullanishi talab qilinadi.

Yana shu o'rinda yana bir muhim masalaga e'tibor qaratishimiz zarur deb o'ylayman. Bu quyidagicha:

Amalda OTMlar darsni qanday tashkil qilish masalasini ham o'zlari belgilash huquqiga ega emas desak to'g'ri bo'ladi. Masalan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi 20-2018-son buyrug'i 2-bob, 8-bandida OTMda maruza mashg'ulotlari odatda ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo'lgan professor- o'qituvchilar tomonidan o'tkazilishi kerakligi belgilangan. OTM da darslarni qat'iy ravishda ikki turga ya'ni ma'ruza va seminar darslariga bo'lib, ularning har birini aynan kimlar tomonidan o'tilishi kerakligigacha vazirlik tomonidan belgilab qo'yilishi qay darajada to'g'ri Bu amalyot o'z samarasini beryaptimi? Bir fan bo'yicha mar'uzalarni bir darajadagi o'qituvchi, seminarlarni esa boshqa darajadagi o'qituvchilar o'tishi amalyoti yana qaysi davlatlar tajribasida mavjud? Darslarni tashkil etish uslublari faqat ma'ruza va seminarlardan iboratmi? Nima uchun OTMlar darslarni tashkil qilish kabi oddiy masalalarni ham o'zlari hal qilish huquqiga ega emas? <sup>3</sup> Vazirlik tomondan professorlarning qat'iy tanlab berilishi bu talabalar tomonidan unchalik ham iliq kutib olinmaydi. Bunga asosiy sabablardan biri talaba va professor munosabatidir, bu munosabat doim ham iliq bo'lavermaydi. Chunki inson psixologiyasi shunday narsaki u doim ham ma'lumotlarni bir xil tarzda qabul qila olmaydi. Buni yetkazib beradigan va qiziqtiradigan inson esa o'qituvchi va uning pedagogic mahoratiga bog'liq. Qanchalik bilim kuchli bo'lmasin aslida pedagogik mahoratsiz bu bilimni kimgadir yetkazib berib bo'lmaydi. Yana bir psixologik holat professordan ololmagan bilimni oddiy o'qituvchidan olishi mumkin. Shuni takidlab o'tish kerakki talaba o'ziga kerakli fanni tanlashda ba'zan adashib ketishi mumkin va bu vaziyatda unga ko'mak zarur, lekin u kimdan yaxshi va ko'proq bilim olaolishini o'zi juda yaxshi biladi. Chunki u abituriyentligida bu tanlovni qilgan va tanlovi to'g'ri bo'lganligi sabali ham u ma'lum bir OTM talabasi sharafiga ega bo'lgan. Va shu bilan birga kredit modul ta'lim tizimi ham aynan talabaning mustaqil qaror qabul qilishini va u kelajakda kadr bo'lib yetishganda ham bu ko'nikma unga katta yordam berishi uchun ham kengantirilmoqda. Hamda darslar faqtgina ma'ruza va seminardan iborat bo'lishi bu nazariya berishi mumkin lekin bu talabaga amalyot bermaydi. Qachonki amalda qo'llab ko'rib xat'o kamchiliklarini ko'rsagina ayni muddao bo'ladi.

Bazi fikrlar bo'lishi mumkin talabalar yuqori kurslarda amalyotga chiqishadi, to'g'ri ular o'sohalari bo'yicha amalyotga chiqishadi, masalani lekin tomoni ham bor sababi o'z

<sup>1</sup> Jessica Shedd (2003), "The History of the Student Credit Hour". *New Directions for Higher Education*. 122 (Summer) (122): 5-12

<sup>2</sup> Resolution of The Council and of the Ministers of Education, Meeting within the Council, Official Journal of the European Communities, 1976. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:41976X0219&from=EN>

<sup>3</sup> Вохид Ўринов Ўзбекистон Республикаси Олий Таълим Муассасаларида ECTS Кредит-Модуль Тизими (10 август 2020)

sohamdan kelib chiqib aytadigan bo'lsa, bizga o'quvchilar bilan ishlashga amalyot beriladi lekin bixga psixologiyaning faqatgina tarixi rivojlanishi fani o'tilgan, ammo o'quvchining psixologik holatini aniqlash va unga darsni yetkazib berish yo'llarini qidirishimiz uchun avvalo darslarda biz amalyot qilib ko'rishimiz shart deb o'ylayman. Pedagogikada psixologiya o'ta ahamiyatlidir. Sababi o'rganuvchi va o'rgatuvchi o'rtasida ijobiy aura paydo bo'lgandan keyingina ular birgalikda ishlay olishlari mumkin. Bu esa pedagogdan amalyot talab qiladi. Har bir sohada psixologiya va mahorat muhim hisoblanadi. Shu o'rinda yana bir shaxsiy fikrimni boldirib o'tmoqchiman bu fikr hozirgacha bo'lgan ta'lim olganimga o'qituvchilarning turlari haqida va yillar o'tib bu o'qituvchilarning yomonidan ham yaxshisidan ham kerakli mahoratni oldim deb umid qilaman. O'qituvchiga bilim kerak, lekin eng asosiysi mahorat o'ta muhimdir, bu mahoratni oshirish uchun esa inson tinmasdan harakat qilishi shart. Hozirgi kunda raqobat o'ta kuchlidir, o'z ustida ishlamagan yoki bilimi past odamni tezda chetga surib qo'yish oson bo'lib qolgan, bu to'g'ri albatta o'qituvchilar kuchli bo'lsa kadrlar albatta kuchli bo'ladi. Shu o'rinda yana bir gap har qanday sohaning rivoji avvalo ta'limdan boshlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan yana bir asosiy mavzulardan biri pedagogik mahorat haqida ham ozgina to'xtalib o'tsa arziydi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki ta'limda shaffoflikka erishish maqsadida joriy etilayotgan kredit modul ta'lim tizimi kelajakda davlatga, jamiyatga va xalqqa xizmat qiladigan kadrlar yetishtirishda muhim ahamiyatga ega deya olishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”, 1-илоvasи, 9- банди
- [2]. World Bank “The Academic Credit System in Higher Education: Effectiveness and Relevance in Developing Countries” (July 1992)
- [3]. Jessica Shedd (2003), “The History of the Student Credit Hour”. *New Directions for Higher Education*. 122 (Summer) (122): 5-12
- [4]. Resolution of The Council and of the Ministers of Education, Meeting within the Council, *Official Journal of the European Communities*, 1976. <https://eur-lex.europa.eu/legal content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:41976X0219&from=EN>
- [5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097- son Farmoni Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
- [6]. Azizho jayev N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.*-T.:2018.
- [7]. "Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-4795, 30.07.2020 y.)
- [8]. European Commission *ECTS Guide of 2004*. Available at [https://www.uc.pt/ge3s/pasta\\_docs/ects-users-guide170804.pdf](https://www.uc.pt/ge3s/pasta_docs/ects-users-guide170804.pdf)
- [9]. European Commission *ECTS Guide of 2009*. Available at [https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ects-users-guide 2009\\_en.pdf](https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ects-users-guide 2009_en.pdf)
- [10]. Olimovna N. S. *Synergetic Linguistics as a New Philosophy of Language Study //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences.* – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 136-142.

- [11]. Narzullayevna S. N., Olimovna N. S. *Interacting with Lower-Level Students and Overcome their Problems in Classes //Miasto Przyszłości*. – 2024. – Т. 45. – С. 714-717.
- [12]. Вохид Ўринов Ўзбекистон Республикаси Олий Таълим Муассасаларида ECTS Кредит-Модуль Тизими (10 август 2020)
- [13]. Rakhimova, Z., & Bahriddinova, Z. (2023). *Exploring Pedagogical Strategies: Tailored Techniques for Assessing Children's Developmental Capacities*. *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics*, 1(4), 125-131.